

**BAXSHILARNING DOSTON IJROCHILIGIDA USTOZ-SHOGIRD MAKTABINING
ZARURIYATI VA AHAMIYATI
(Qoraqalpoq baxshichiligi misolida)**

Xudaybergenova Gulshinar – o‘qituvchi
Qudaybergenovagulshinar@gmail.com
O‘zDSMI Nukus filiali
Seytimbetov Quwanishbay – o‘qituvchi
22-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi

**НЕОБХОДИМОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ ШКОЛЫ «МАСТЕР-УЧЕНИК»
В ЭПИЧЕСКОМ ИСПОЛНЕНИИ БАХШИ**

(На примере каракалпакского искусства бахши)

Худайбергенова Гульшинар – преподаватель
Нукусский филиал Государственного института культуры и искусств Узбекистана
Сейтимбетова Куанышбая – преподаватель
Детская школа музыки и искусств No 22

**THE NECESSITY AND IMPORTANCE OF THE “MASTER-APPRENTICE” SCHOOL IN THE
EPIC PERFORMANCE OF BAKHSHI (On the example of Karakalpak bakhshi art)**

Xudaybergenova Gulshinar – teacher
Nukus branch of the State Institute of Culture and Arts of Uzbekistan
Seytimbetov Quwanishbay – teacher
Children's School of Music and Arts No. 22

Tayanch so‘zlar: baxshichilik san’ati, doston ijrochiligi, ustoz-shogird maktabi, qoraqalpoq musiqasi, ijro uslubi, milliy meros, folklor.

Rezyume. Ushbu maqolada qoraqalpoq baxshichilik san’atining tarixiy shakllanish bosqichlari, doston ijrochiligida ustoz-shogird maktabining an’analari, uzviyligi va tutgan o‘rni ilmiy, tarixiy va amaliy jihatdan keng tahlil qilingan. Aximbet, Muwsa, Súyew kabi yetakchi baxshilarning ijro uslublari, qiz baxshilar (Hurliman, Qanigúl) faoliyati, shuningdek, milliy musiqa merosini yosh avlodga sof holda yetkazishdagi mexanizmlar asoslab berilgan. Doston ijrochiligi sirlarini o‘rganishda zamonaviy ta’lim bilan an’anaviy ustoz-shogird metodikasining uyg‘unligi masalalari yoritilgan.

Ключевые слова: искусство бахши, исполнение дастанов, школа наставник-ученик, каракалпакская музыка, стиль исполнения, национальное наследие, фольклор.

Резюме. В данной статье с научной, исторической и практической точек зрения всесторонне анализируются исторические этапы формирования каракалпакского искусства бахши, традиции, преемственность и роль школы «наставник-ученик» в исполнении дастанов (эпосов). Обоснованы исполнительские стили ведущих бахши (Акимбет, Муса, Суйеу), деятельность девушек-бахши (Хурлиман, Канигуль), а также механизмы передачи национального музыкального наследия молодому поколению в первоизданном виде. Освещены вопросы гармонизации современного образования с традиционной методикой при изучении секретов исполнения дастанов.

Key words: bakhshi art, dastan performance, master-apprentice school, Karakalpak music, performance style, national heritage, folklore.

Summary. This article provides a comprehensive scientific, historical, and practical analysis of the historical stages in the formation of Karakalpak bakhshi art, as well as the traditions, continuity, and role of the "master-apprentice" school in the performance of dastans (epics). The performing styles of leading bakhshis (Akimbet, Musa, Suyu), the activities of female bakhshis (Hurliman, Qanigul), and the mechanisms for transmitting the national musical heritage to the younger generation in its original form are substantiated.

KIRISH. Qoraqalpoq xalqining boy madaniy merosi, musiqasi, adabiyoti va san’ati asrlar davomida xalq qalbining jarchisi sifatida shakllanib, avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Baxshi, oqin va jirovlar turli millat va elatlarni birlashtiradigan ulug‘ insonlar sifatida ardoqlanib kelinadi. [1.1b] Bugungi kunda mamlakatimizda

baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish, uning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini teran o‘rganish, “ustoz-shogird” an’alarini qayta tiklashga davlat darajasida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

bu qadimiy va navqiron san'atni saqlab qolish va targ'ib etishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda [1.3b]. Doston ijrochiligi favqulodda murakkab, ko'p qirrali va mashaqqatli san'at turi bo'lib, ijrochidan nafaqat kuchli xotira, shirali ovoz va sozandalik mahoratini, balki chuqur falsafiy mushohada, aktyorlik qobiliyati va yuksak insoniy fazilatlarni ham talab etadi [2.2b]. Shu sababli doston aytish sirlarini kitobdan o'qib yoki mustaqil o'rganib bo'lmaydi. Bu jarayonda shogirdni maqsadli yo'naltiruvchi, uning ruhiyatini va ijro texnikasini tarbiyalovchi ustoz-shogird maktabining o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada qoraqalpoq baxshichilik san'ati misolida doston ijrochiligining o'ziga xos sirlari, maktablar qanday shakllangani hamda an'anaviy ustoz-shogird tizimining bugungi kundagi ahamiyati tahlil etiladi.

USULLAR. Tadqiqot jarayonida qoraqalpoq baxshichilik san'ati tarixi, doston ijrochiligi mexanizmlari, qoraqalpoq musiqiy merosining shakllanish omillarini yoritishda tavsifiy, tarixiy-qiyosiy, kontekstual va kompleks yondashuv tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, sohaning yetakchi mutaxassisleri (Q.Ayimbetov, N.Dawqarayev, T.Adambayeva, Q.Maqsatov) ilmiy-nazariy merosi hamda xalq orasidagi tarixiy ma'lumotlar o'rganildi [3.14b].

NATIJALAR VA MUNOZARA

Qoraqalpoq xalq musiqiy madaniyatida doston va qissalarni xalqqa yetkazishda jirovlar va baxshilarning o'rni alohidadir. Jirovlar qobiz chalib, ko'proq qahramonlik eposlarini ("Qirq qiz", "Alpomish", "Sharyar" va h.k.) tomoq bilan (qirillatib) jirlagan bo'lsa, baxshilar alamoynaq dutor chertib, soz (ochiq) ovozdada asosan ishqiylirik dostonlarni ("G'arib oshiq", "Yusuf va Ahmad", "Sayatxon va Hamro", "Go'ro'g'li") kuylaganlar. Shu bois, xalq orasida "jirov jirladi", "baxshi aytdi" iboralari shakllangan [4.18b]. Qoraqalpoq baxshichilik san'ati ijro uslublariga ko'ra o'ziga xos maktablarga bo'linadi. Q.Ayimbetov va N.Dawqarayev kabi yirik olimlarning ta'kidlashicha, baxshichilik maktablari tarixda dastlab Muwsa va Súyew maktablariga, keyinchalik yanada teranroq o'rganishlar natijasida Aqimbet, G'aribniyaz, Arzi va Qutum kabi kengroq maktablarga ajratilgan. XIX asrning o'rtalarida yashab o'tgan Aqimbet baxshi qoraqalpoq baxshichiligini eng yuqori pog'onaga ko'targan, o'z atrofida o'nlab iqtidorli yoshlarni to'plab, ustoz-shogird maktabiga asos solgan ulug' ustozlardan biri sanaladi.

Ustoz-shogird an'anasining mexanizmlari. O'tmishda baxshilarning shogird tayyorlash yo'li o'ta mas'uliyatli jarayon bo'lgan. Dastlab ustoz

bo'lajak shogirdning soz chertish uquvini, zehni va musiqiy iqtidorini sinovdan o'tkazgan. Shogird ustozning uyiga kelib yoki u bilan birga uzoq yillar to'y-tomoshalarga safar qilib, xizmatini qilgan. Baxshi doston ijro etganida shogird uning yonida (jo'rnavoz bo'lib) dutor chertgan va asarning barcha qirralarini, kuylash texnikasini, sozlash usullarini vizual va eshitish orqali xotirasiga muhrlagan [5.25b]. Aqimbet baxshining pedagogik uslubi o'ziga xos qat'iyat bilan ajralib turgan. U shogirdlarini bir joyga to'plab, qo'shiq aytish va dutor chertish texnikasini barcha shogirdlariga navbatma-navbat ijro ettirgan. Bir ohangni to'la va benuqson o'zlashtirmaganlaricha, navbatdaxisiga o'tishga ruxsat bermagan. Shogird dostonning nasriy va she'riy qismlarini to'liq o'zlashtirganiga ustozning ishonchi komil bo'lgachgina, maxsus sinov imtihoni tashkil etilgan. Aqimbet baxshi o'zining Muwsa, Edenbay, Esemurat va Bayniyoz kabi shogirdlariga fотиha berishdan oldin elni to'plab, katta to'y (qur) bergan. Ushbu maydonda har bir shogird xalq oldida eng murakkab namalarni va doston qismlarini ijro etib berishi shart bo'lgan. Sahnada shogirdning ijrosi elga ma'qul tushsagina, ustoz unga mustaqil baxshilik qilish uchun ruxsat (oq fотиha) bergan va u xalq orasida "baxshi" nomiga sazovor bo'lgan. Shunday sinovda eng og'ir namalarni ("Adin'an", "Ariwxan", "Muxalles", "Ala qayis" va b.) yuksak mahorat bilan ijro etib xalqni lol qoldirgan Muwsa baxshi qoraqalpoq musiqiya san'atining yorqin yulduziga aylangan [6.19b].

Muwsa maktabi va doston ijrochiligidagi yuksalish. Aqimbet baxshining eng yetuk shogirdi Muwsa baxshi (1854–1907) nafaqat kuchli ijrochi, balki katta sozanda va bastakor ham edi. Muwsa ustozidan o'rgangan an'anaviy xalq ohanglarini o'ziga xos nolalar, qochirimlar, forshlag va triollar bilan boyitib, asarlarning musiqiy jozibasini keskin oshirdi. Uning repertuaridan "Yusuf-Zulayho", "G'arib oshiq", "Sayatxon-Hamro", "Go'ro'g'li", "Bazirgen" kabi yirik dostonlar o'rin olgan bo'lib, u bu dostonlarni o'zining mutlaqo takrorlanmas, o'ziga xos variantida ("Muwsa maktabi") yaratdi. Muwsa baxshi aytgan qo'shiqlar qoraqalpoq musiqasining oltin fondidan joy olgan. Qolaversa, uning izdoshlari (Esjan baxshi, Juman baxshi, Shernazar) ustozning ijro yo'lini yanada boyitdilar. Masalan, Esjan baxshi "G'arib oshiq" dostonini 7-8 soat davomida tinimsiz, hech bir ohangni takrorlamasdan o'ziga xos ritmlarda ijro etgan, uning qochirimlari o'ta professional va murakkab operaga tenglashtirilgan. **Madaniyatlararo mushtaraklik: Súyew baxshi ta'siri.** Qoraqalpoq doston

ijrochiligida qo'shni xalqlarning ta'siri katta. Xususan, aslan turkman bo'lgan Xorazm vohasiga dong'i ketgan Súyew baxshi qoraqalpoq va aralbo'yi o'zbek baxshilari uchun ham ulkan ustoz vazifasini o'tagan. Súyew baxshi qoraqalpoqlar orasiga kelib, to'y-tomoshalarda dostonlar aytgan va Muwsa baxshi bilan o'zaro ijodiy musobaqalar (mushayralar) o'tkazib turgan. Japaq baxshi kabi yirik qoraqalpoq san'atkorlari bevosita Súyew baxshi shogirdlaridan ta'lim olib, uning maktabini qoraqalpoq musiqasiga tatbiq etdilar. Aralbo'yi o'zbek baxshilari ham (Qutim, Alliyar, Gurbek, Orinbay) aynan Súyew baxshining shogirdlari bo'lib, bu narsa o'zbek, turkman va qoraqalpoq doston kuy-ohanglarining bir-biri bilan chambarchas aralashib ketishiga, boyishiga xizmat qildi.

Ayol (Qiz) baxshilar jasorati. Qoraqalpoq baxshichiligida qizlarning doston ijro etishi alohida tarixiy ahamiyatga ega. XIX asrda yashab o'tgan buyuk Berdaq shoirning qizi Hurliman qoraqalpoq ayollari orasida birinchilardan bo'lib qo'liga dutor oldi. Jamiyatdagi qattiq qarshiliklarga, din peshvolarining ta'qiqlariga qaramay, u yuzini ochib xalq oldida "Sayatxon-Hamro", "Gulbulbi" kabi dostonlarni kuyladi. Uning an'anasini keyinchalik Qanigul baxshi hamda uning o'g'li Qarajan baxshi davom ettirdi.

Bugungi kunda bu an'ana Zulfiya mukofoti sovrindorlari va xalq baxshilari Gulnara Allamberganova, Ziyada Sheripova kabi iqtidorli qiz baxshilarimiz faoliyatida o'z aksini topmoqda. Ular eng yirik dostonlarni yoddan va yuqori mahorat bilan xalqaro sahnalarda ijro etib, ustoz-shogird maktabi ayollar o'rtasida ham uzilmayotganini isbotlamogda.

Ustoz-shogird an'anasining bugungi kungi holati. Mustaqillik yillarida baxshichilik va doston ijrochiligi akademik darajaga ko'tarildi. Ilgari baxshilar o'n-o'n beshlab dostonlarni faqat ustoziga ergashib, og'zaki eshitib yod olishgan bo'lsa, bugun bolalar musiqa maktablari, Nukus davlat pedagogika instituti hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filialida baxshichilik bo'limlari ochilgan. Bugungi davr

baxshilari Gayratdin O'temuratov, Genjebay Tilewmuratov, Oralbay Otambetov kabilar nafaqat jonli amaliyot, balki notaga ko'chirilgan darsliklar orqali ham ta'lim bermoqda. Biroq, doston matnini quruq yodlash va notani chertish bilan baxshi bo'lib bo'lmaydi. Zamonaviy ustozlar (masalan, Gayratdin O'temuratov, Oralbay Otambetov) asarning ichki falsafasini, vokal texnikasini (hawaz sazlaw), nasriy qismlarning (deklamatsiya, rechitativ) teatr aktyorlaridek hissiy ifodasini shogirdlariga qadimiy uslubda — yakka tartibda ishqibozlik va mehr bilan o'rgatmoqdalar. Misol uchun, shogirdlardan biri E.Asqarov "Sayatxon Hamro", N.Qidirmiyazov "Hurlixa Hamra", O.Jollibayev "Bázirgen" kabi dostonlarni har biri alohida o'zlashtirib, O'zbekiston miqyosida o'tkazilayotgan xalqaro baxshichilik festivallarida va teleko'rsatuvlarda muvaffaqiyatli ijro etmoqdalar. Bu shuni ko'rsatadiki, ustoz-shogird maktabi an'anasi hozir ham baxshichilikni tirik tutib turgan asosiy asab tomiri hisoblanadi.

XULOSA. Qoraqalpoq baxshilarining doston ijrochiligida ustoz-shogird maktabi tarixan sinovdan o'tgan, o'zini oqlagan beqiyos institutdir. Doston ijrosi shunchaki qo'shiq aytish yoxud cholg'u chalish bo'lmay, u millat ruhiyati, tarixi va falsafasini avloddan avlodga yetkazuvchi tirik ko'prikdir. Qadimda Aqumbet va Muwsa baxshilar tamal toshini qo'ygan, o'ta jiddiy talabchanlik va mas'uliyatga asoslangan maktab metodikasi bugungi akademik ta'lim tizimiga uyg'unlashuvi shart. Zero, notaga qarab o'rganilgan kuydan ko'ra, ustozning "iyak qoqishi", "imlovi", "barmoq bosishi" va "nafas olishi" orqali his etilgan doston jonliroq va ta'sirchanroq bo'ladi. Yosh avlodni tarbiyalashda, "G'arib oshiq", "Go'ro'g'li" kabi nodir dostonlarimizni dunyo sahnasiga olib chiqishda baxshilarimizning genealogik shejirasini (zanjirini) uzib qo'ymaslik, ustozlarning pedagogik uslublarini ilmiy tomondan teran tadqiq etish, hamda iqtidorli yoshlarni ushbu maktab an'analari asosida yo'naltirish eng muhim vazifalardan bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4320-sonli qarori. – T., 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qarori. – T., 2018.
3. Askarov E.B. "Baqsilardın dástan atqarılıwshılıǵında ustaz-shákirt mektebinin zárúrlıǵı hám áhmiyeti" (Magistrlik dissertatsiyasi). – Nukus: NMPI, 2022.
4. Отепбергенова Г. Халық фольклорлық дәстүрлерди үйрениў дәўир талабы. Кórkem óner hám mádeniyat Xabarshısı» ilimiy-metodikaliq jurnali. 2025-жыл. №4-сан.
5. Отепбергенова Г. Халқ педагогикаси ва миллий кадриятлар. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 9-son.